




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Toshkent viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7 833,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **1,3 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 369,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **191,1 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **6 464,4** mlrd. so'mni (**10,2 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **359,9** mlrd. so'mni (**38,6 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





UMUMIY MA'LUMOT

Toshkent viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7 833,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **98,7 %** ni tashkil etdi.



Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida barcha viloyatlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **82,5 %** va yirik korxonalar hissasiga **17,5 %** to'g'ri keldi.


ENG YUQORI ULUSH

Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Zangiota tumani **9,3 %** ulush bilan **730,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Toshkent viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Ohangaron tumani **1,4 %** ulush bilan **112,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **6 464,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **10,2 %** ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **82,5 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Parkent (99,1 %), Bo'ka (98,7 %), Quyi Chirchiq (98,4 %), Piskent (97,2 %) tumanlari hamda Yangiyo'l (97,2 %) shahrida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Nurafshon shahri (204,1 %), Angren shahri (177,0 %) va Bo'stonliq tumanlarida (107,7 %) qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	7833,5	98,7	1369,1	191,1	6464,4	89,8
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	353,6	2 m.	197,2	334,2 m.	156,3	90,5
Olmaliq	670,8	96,7	98,9	100,7	571,9	95,4
Angren	731,8	177,0	442,5	18,3 m.	289,3	74,7
Bekobod	459,4	95,4	102,4	107,5	357,0	92,4
Ohangaron	154,8	103,1	41,8	3,7 m.	113,0	89,8
Chirchiq	391,7	89,3	41,3	80,9	350,4	90,9
Yangiyo'l	441,3	77,2	12,5	92,4	428,8	76,8
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	285,2	86,6	4,7	110,0	280,6	86,3
Ohangaron	112,0	102,4	10,2	2,3 m.	101,8	97,0
Bekobod	213,9	95,7	5,7	50,1	208,3	98,1
Bo'stonliq	405,6	107,7	122,6	6,8 m.	283,0	79,0
Bo'ka	278,9	88,5	3,7	38,6	275,2	90,0
Quy Chirchiq	120,0	88,5	1,9	86,3	118,1	88,5
Zangiota	730,5	90,6	33,1	71,3	697,4	91,7
Yuqori Chirchiq	301,9	100,3	10,1	24,1	291,8	112,6
Qibray	491,9	87,7	37,7	69,6	454,2	88,0
Parkent	353,1	100,3	3,3	26,1	349,8	103,1
Piskent	180,8	84,7	5,0	73,8	175,8	85,1
O'rta Chirchiq	139,4	101,3	20,5	99,2	118,9	101,7
Chinoz	279,2	84,8	89,2	81,1	190,0	86,6
Yangiyo'l	347,1	91,8	10,5	71,7	336,6	92,6
Toshkent	390,5	88,7	74,3	92,3	316,2	87,8

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **85,7 %** ga o'sdi va **1 369,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **17,5 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **6 464,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **10,2 %** ga kamaydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,5 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
TUMAN VA SHAHARLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Parkent (99,1 %), Bo'ka (98,7 %), Oqqo'rg'on (98,4 %) va Quyi Chirchiq (98,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 17,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Angren shahri (60,5 %), Nurafshon shahri (55,8 %) va Chinoz tumanida (31,9 %) kuzatildi.



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA AHOLI JON
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020-yil yanvar-may oylari holatiga ko‘ra o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 658,4** ming so‘m (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **2,7 %** ga kamaydi)

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Yangiyo‘l (7 282,3 ming so‘m), Nurafshon (7 245,6 ming so‘m) va Olmaliq (1 847,8 ming so‘m) shaharlari hissasiga to‘g‘ri keladi.




	Hajm, ming so‘m	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Toshkent viloyati	2 658,4	97,3
<i>Shaharlar:</i>		
Nurafshon	7 245,6	2 p.
Olmaliq	5 109,1	95,3
Angren	3 863,0	174,6
Bekobod	4 785,6	93,8
Ohangaron	4 074,6	100,3
Chirchiq	2 488,8	88,5
Yangiyo‘l	7 282,3	76,0
<i>Tumanlar:</i>		
Oqqo‘rg‘on	2 711,4	85,2
Ohangaron	1 169,4	101,0
Bekobod	1 357,4	94,2
Bo‘stonliq	2 398,7	106,6
Bo‘ka	2 219,0	87,2
Quy Chirchiq	1 109,6	87,1
Zangiota	3 694,9	89,3
Yuqori Chirchiq	2 226,2	98,6
Qibray	2 465,2	86,5
Parkent	2 276,3	98,4
Piskent	1 789,8	83,4
O‘rta Chirchiq	931,7	99,6
Chinoz	2 086,7	83,5
Yangiyo‘l	1 651,4	90,4
Toshkent	2 161,0	87,3

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Tohkent viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **359,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **38,6 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **167,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **69,6 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **192,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **55,7 %**) tashkil etdi.

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **167,5** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **192,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	359,9	61,4	167,5	69,6	192,4	55,7
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	3,3	52,8	3,3	52,8	-	-
Olmaliq	8,2	66,1	3,2	72,6	4,9	62,4
Angren	19,9	76,6	19,9	76,6	-	-
Bekobod	26,1	64,0	26,1	64,0	-	-
Ohangaron	8,0	59,4	8,0	59,4	-	-
Chirchiq	5,2	69,5	5,2	69,5	-	-
Yangiyo'l	80,6	61,6	38,1	72,1	42,6	54,5
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	21,0	60,6	6,2	84,9	14,8	54,2
Ohangaron	-	-	-	-	-	-
Bekobod	4,2	63,0	-	-	4,2	63,0
Bo'stonliq	17,4	51,9	3,2	75,3	14,2	48,5
Bo'ka	39,7	59,8	23,3	66,1	16,4	52,7
Quyichirchiq	6,9	58,1	1,9	75,8	5,1	53,5
Zangiota	22,5	56,4	0,2	45,7	22,2	56,5
Yuqori Chirchiq	4,4	90,3	4,4	90,3	-	-
Qibray	30,0	56,8	-	-	30,0	56,8
Parkent	16,6	66,6	8,1	74,3	8,5	60,6
Piskent	21,3	63,0	6,5	69,6	14,8	60,5
O'rta Chirchiq	-	-	-	-	-	-
Chinoz	11,0	60,8	5,4	64,9	5,6	57,4
Yangiyo'l	-	-	-	-	-	-
Toshkent	13,7	63,5	4,5	71,5	9,1	60,1



**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



2,2
mlrd. so'm

Tuzlamalar



81,1
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



3,1
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

17,2
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



5,2
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

3,3
mlrd. so'm



Tuxum

29,8
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

0,3
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

2020-yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha tuman va shaharlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **167,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**81,1** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

3,1
mlrd. so'm



Ziravorlar

19,2
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

3,0
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari** (manzarali va
qishloq xo'jaligi)


2020-yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha tuman va shaharlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **192,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 96,3 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 20,1 mlrd. so'mni, otlar 7,6 mlrd. so'mni, parrandalar 0,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 % ni tashkil etib, 167,9 mlrd. so'mga yetdi va 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 29,0 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 97,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	167,9	71,0	49,4	109,0	118,6	62,0
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	8,0	2,6 m.	6,2	x	1,9	61,5
Olmalik	39,4	97,1	27,4	121,1	12,0	65,9
Angren	10,2	46,6	-	-	10,2	47,6
Bekobod	4,6	66,3	-	-	4,6	66,3
Ohangaron	9,9	52,4	7,2	64,4	2,8	62,3
Chirchiq	17,8	64,6	3,2	77,7	14,6	66,4
Yangiyo'l	7,4	72,1	0,2	x	7,2	70,3
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	0,9	61,5	-	-	0,9	61,5
Ohangaron	2,8	64,0	-	-	2,8	64,0
Bekobod	1,5	59,5	-	-	1,5	59,5
Bo'stonliq	7,2	66,2	0,2	71,0	7,0	66,9
Bo'ka	2,6	57,2	0,4	57,0	2,2	60,1
Quyichirchiq	1,3	60,0	-	-	1,3	60,0
Zangiota	7,0	66,1	-	-	7,0	66,1
Yuqori Chirchiq	6,4	64,9	-	-	6,4	64,9
Qibray	16,3	74,3	4,6	x	11,7	55,1
Parkent	5,0	57,5	-	-	5,0	59,4
Piskent	1,8	60,3	-	-	1,8	60,3
O'rta Chirchiq	2,3	62,9	-	-	2,3	62,9
Chinoz	1,9	59,4	-	-	1,9	59,4
Yangiyo'l	6,6	65,0	-	-	6,6	65,0
Toshkent	6,9	67,9	-	-	6,9	67,9

2019-yil
yanvar-may



2020-yil
yanvar-may



■ Nodavlat mulk

■ Davlat mulki

2019-yil yanvar-may oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 2,5 % ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi **167,9** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 71,0 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha **167,7** mlrd. so'm nodavlat mulkka hamda **0,2** mlrd. so'm davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent viloyati	167,9	100,0	167,7	99,8	0,2	0,2
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	8,0	4,8	-	-	-	-
Olmaliq	39,4	23,5	-	-	-	-
Angren	10,2	6,1	-	-	-	-
Bekobod	4,6	2,7	-	-	-	-
Ohangaron	9,9	5,9	-	-	-	-
Chirchiq	17,8	10,6	17,6	99,8	0,2	0,2
Yangiyo'l	7,4	4,4	-	-	-	-
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	0,9	0,5	-	-	-	-
Ohangaron	2,8	1,7	-	-	-	-
Bekobod	1,5	0,9	-	-	-	-
Bo'stonliq	7,2	4,3	-	-	-	-
Bo'ka	2,6	1,5	-	-	-	-
Quy Chirchiq	1,3	0,8	-	-	-	-
Zangiota	7,0	4,2	-	-	-	-
Yuqori Chirchiq	6,4	3,8	-	-	-	-
Qibray	16,3	9,7	-	-	-	-
Parkent	5,0	3,0	-	-	-	-
Piskent	1,8	1,1	-	-	-	-
O'rta Chirchiq	2,3	1,4	-	-	-	-
Chinoz	1,9	1,1	-	-	-	-
Yangiyo'l	6,6	3,9	-	-	-	-
Toshkent	6,9	4,1	-	-	-	-

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Toshkent viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 684,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **12,0 %** ga kamaydi. Shu jumladan, kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2 162,3** mlrd. so'mni (**11,3 %** ga kamayish) tashkil etdi. Ushbu sektor jami viloyat ulgurji savdo tovar aylanmasida **58,7 %** ulushni tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Eng yuqori ulushga ega hududlar





Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Nurafshon (13,1 m.) va Ohangaron shaharlarida (119,5 %) hamda Bo'stonliq tumani da (2,5 m.) kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	3684,7	88,0	1522,5	87,1	2162,3	88,7
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	253,1	13,1 m.	239,8	5242 m.	13,3	69,3
Olmaliq	85,5	93,0	14,5	109,4	71,0	90,2
Angren	48,8	90,1	0,01	16,1	48,8	90,1
Bekobod	50,1	89,8	0,1	72,3	50,0	89,8
Ohangaron	47,3	119,5	17,3	x	30,0	75,8
Chirchiq	106,2	92,9	3,9	104,2	102,3	92,6
Yangiyo'l	205,7	96,3	-	-	205,7	96,5
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	5,0	89,6	0,02	2,2 m.	5,0	89,5
Ohangaron	33,7	88,9	0,1	70,2	33,6	89,0
Bekobod	33,6	67,3	11,5	45,2	22,1	90,3
Bo'stonliq	100,9	2,5 m.	67,7	381,9 m.	33,2	83,4
Bo'ka	34,3	90,2	0,02	69,9	34,3	90,2
Quyi Chirchiq	18,4	97,5	3,0	25 m.	15,4	82,1
Zangiota	399,8	86,7	1,7	193,2	398,2	86,5
Yuqori Chirchiq	97,7	91,7	0,3	3,1	97,3	101,8
Qibray	1002,4	113,6	747,0	132,0	255,3	80,8
Parkent	96,2	91,1	0,01	0,6	96,2	91,8
Piskent	35,9	90,5	0,1	3,1 m.	35,8	90,3
O'rta Chirchiq	304,1	33,5	287,8	32,4	16,3	88,0
Chinoz	145,4	57,5	123,2	54,6	22,1	82,5
Yangiyo'l	188,3	89,9	0,2	165,5	188,2	89,9
Toshkent	392,3	88,5	4,2	40,7	388,1	89,7

**YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR
AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **2 162,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **11,3 %** ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **58,7 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich tuman va shaharlar kesimida taqqoslanganda, Angren (100 %) va Yangiyo'l (100 %) shaharlarida hamda Parkent tumanida (100 %) yuqori bo'ldi.



Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:(71) 202-86-59